

JORJ ORUELNING "1984" ASARIDAGI FRAZEOLOGIZMLAR TAHLILII VA TARJIMADA KELIB CHIQQAN MUAMMOLAR

Yuldasheva Durdona

dryuldasheva@gmail.com

Namangan davlat chet tillari instituti magistr talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15116039>

Annotatsiya. Ushbu maqolaning aosisiy maqsadi "1984" kitobidagi frazeologizmlarning tarjima usullarini ko`rib chiqish, hamda frazeologik birlklarni tarjima qilishda kelib chiqqan muammolarni tahlil qilishdan iborat. Shuningdek, ingliz tilidan o`zbek tiliga to`g`ri va noto`g`ri tarjima qilingan birliklar, asardan parchalar asosida ko`rib chiqilgan va diskursga tushadigan mos tarjimalar berib o`tilgan.

Tayanch tushunchalar: frazeologizmlar, newspeak, ibora, frazeologik birliklar, doublethink.

ANALYSIS OF PHRASEOLOGISMS IN GEORGE ORWELL'S "1984" AND PROBLEMS ARISING IN TRANSLATION

Abstract. The main purpose of this article is to consider the translation methods of phraseologisms in the book "1984", as well as to analyze the problems that arise in translating phraseological units. Also, correctly and incorrectly translated units from English into Uzbek, based on excerpts from the work, and appropriate translations that fit into the discourse are given.

Key concepts: phraseologisms, newspeak, expression, phraseological units, doublethink.

АНАЛИЗ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В РОМАНЕ ДЖОРДЖА ОРВЕЛА «1984» И ПРОБЛЕМЫ, ВОЗНИКАЮЩИЕ ПРИ ПЕРЕВОДЕ

Аннотация. Основной целью данной статьи является рассмотрение способов перевода фразеологизмов в книге «1984», а также анализ проблем, возникающих при переводе фразеологических единиц. Кроме того, на основе отрывков из произведения рассматриваются правильно и неправильно переведенные единицы с английского на узбекский язык, и даются соответствующие переводы, соответствующие дискурсу прошедшего.

Ключевые понятия: фразеологизмы, новояз, идиома, фразеологические единицы, двоемыслие.

Jorj Oruellning "1984" romani totalitar davlatlar tuzumini, propagandaning kuchini va nazoratning jamiyatga ta'sirini ochib beruvchi mashhur asarlardan biridir. Ushbu roman nafaqat syujet jihatidan, balki lingvistik tuzilishi bilan ham ajralib turadi.

Orwell asarida maxsus sun'iy til - Newspeak (Yangi til) dan foydalangan bo'lib, bu til roman mazmuni va maqsadiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, romanda ko'plab frazeologik birliklar, stilistik vositalar va metaforik iboralar mavjud. Ushbu bo'limda "1984" romanining lingvistik xususiyatlari chuqur tahlil qilinadi.

"1984" romanining lingvistik xususiyatlarini tahlil qilishda quyidagi jihatlar alohida ahamiyat kasb etadi:

1. Frazeologik birliklarning keng qo'llanilishi
2. Newspeak (Yangi til) ning roli
3. Ikkiyuzlamachilik (Doublethink) va til orqali manipulyatsiya
4. Propaganda va senzura tili
5. Metaforalar va allegoriyalar

Frazeologik birliklar va ularning o'ziga xosligi. Orwell romanda ingliz tilidagi klassik frazeologik birliklardan foydalanish bilan birga, o'zi yaratgan yangi frazeologik iboralarni ham kiritgan. Ushbu birliklar asosan totalitar tuzumning tildan foydalanish uslubini ifodalash uchun ishlatilgan. Shu o'rinda roman matnida uchraydigan ba'zi frazeologik birliklardan misollar keltirib o'tmoqchiman.

"Big Brother is watching you" (Katta Aka seni kuzatib turibdi) – bu frazeologik ibora totalitar nazoratning ramzi hisoblanadi. Orwell ushbu iborani romanning asosiy g'oyalaridan biri sifatida ishlatgan.

"Thoughtcrime" (Fikr jinoyati) – mustaqil fikrlashni jinoyat deb qabul qiluvchi tizimni ifodalaydi. Bu tushuncha frazeologik birlik sifatida ishlatiladi.

"Unperson" (Yo'q qilingan shaxs) – mavjudligini butunlay yo'q qilish, tarixdan o'chirish tushunchasi. Totalitar tuzumda kimdir partiyaga qarshi chiqsa, u shaxs butunlay "yo'q qilingan" deb hisoblanadi.

O'zbek tiliga tarjima qilganda, ushbu frazeologik birliklarni saqlab qolish qiyin bo'lган.

Buning asosiy sababi esako`p iboralar yozuvchi tomonidan o'sha davrdagi tuzumni yanada yoritib berish uchun yaratilgan iboralar hisoblanadi. Big Brother is watching you iborasi "Katta Aka seni kuzatib turibdi" deb so'zma-so'z tarjima qilingan bo'lsa-da, bu iboraning konnotativ ma'nosini tushuntirish kerak. Thoughtcrime ni "Fikr jinoyati" deb tarjima qilish mumkin, lekin bu ibora o'zbek tilida tabiiy chiqmasligi mumkin. Shu sababli, uni "taqiqlangan fikrlar" yoki "jinoyat deb hisoblangan fikrlar" tarzida kengaytirib tushuntirish talab etiladi.

Orwell uslub jihatidan sodda, lekin semantik jihatdan chuqur yozuvchi hisoblanadi. U til orqali manipulyatsiya qilish usullarini ko'rsatish uchun ba'zi texnikalardan foydalangan. Oddiy gap qurilishi: Orwell jumlalari oddiy va tushunarli bo'lib, o'quvchini tezda jalb qiladi.

Kuchli antonimiya va qarama-qarshi tushunchalar: Masalan, Freedom is slavery (Erkinlik - bu qullik) yoki Ignorance is strength (Bilimsizlik - bu kuch). Simvolik obrazlar va metaforalar: Big Brother, Room 101, Telescreens kabi tushunchalar roman davomida simvol sifatida ishlataladi.

Orwellning sodda, lekin semantik jihatdan boy uslubi tarjimada saqlab qolish qiyin.

Masalan, War is Peace (Urush - tinchlik) kabi iboralar ko‘p ma’noga ega bo‘lib, ularni soddalashtirib yuborish ma’no yo‘qotilishiga olib kelishi mumkin.

"1984" romanining lingvistik xususiyatlari uni o‘ziga xos va ta’sirli asarga aylantiradi.

Orwell sun’iy til - Newspeak orqali tilning nazorat vositasi sifatida ishlatalishini ko‘rsatib bergen. Frazeologik birliklar va metaforalar roman kontekstida kuchli ma’noga ega bo‘lib, tarjima jarayonida ularni to‘g‘ri uzatish muhim. O‘zbek tiliga tarjima qilishda asosiy muammolar:

1. Sematik o‘ziga xosligi. Newspeak iboralarining tarjimasi murakkabligi.
2. Frazeologik birliklarning ekvivalenti yo‘qligi.
3. Orwell uslubini saqlash qiyinchiligi. Konteksti qo‘qotish xavfi.

Shu sababli, tarjimada madaniy moslashtirish va izohli yondashuv qo‘llash eng maqbul usullardan biri hisoblanadi. Asarning o‘zbek tiliga tarjimasida ham ushbu usullardan samarali qo‘llanilgan.

1. Sematik o‘ziga xoslik. Roman semantik o‘ziga xos deganda asarning tilida va uslubida ifodalangan chuqur, ko‘p qirrali ma’nolar, hissiyotlar va madaniy kontekst nazarda tutiladi. Har bir roman o‘zining ma’nosini nafaqat voqealarni tasvirlash, balki metaforalar, timsollar va tayyor iboralar orqali ifodalaydi. Bu ma’nolar o‘quvchi ongida xayoliy, ijtimoiy va falsafiy qatlamlarni hosil qiladi. Masalan, g‘ayrihayoliy davlat sharoitida sodir bo‘ladigan voqealarni aks ettiruvchi asarlarda yaratilgan maxsus frazeologik birliklar, ularning o‘ziga xos konnotatsiyalari va semantik yuklamalari, asarning umumiy atmosferasini va ichki tanqidiy qarashlarini aks ettiradi.

Shu nuqtai nazardan, roman semantik o‘ziga xosligi tilning o‘ziga xos ifoda vositalari, madaniy an’analari va tarixiy konteksti orqali namoyon bo‘ladi. Tarjima jarayonida esa bu ma’nolarni boshqa tilga ko‘chirishda, asarning asl hissiy va estetik mazmunini yo‘qotmaslik uchun maxsus yondashuv talab etiladi. Tarjimon uchun bu nafaqat so‘zlarni almashtirish, balki asarning yaratilgan ruhiy va madaniy atmosferasini ham saqlab qolish, o‘quvchiga o‘scha davrning o‘ziga xosligini yetkazish vazifasidir.

George Orwellning "1984" asari nafaqat g‘ayrihayoliy voqealar tasviri, balki til orqali totalitar hokimiyatning inson ongiga ta’siri, nazorat mexanizmlari va siyosiy propagandaning murakkab semantik qatlamlarini ham ifodalaydi. Asarda ishlatilgan frazeologik birliklar, atamalar va maxsus yaratilgan "Newspeak" tili o‘ziga xos ma’no yuklamasini aks ettiradi.

Bu semantik o‘ziga xoslik asarning umumiy ruhiyati va ideologik tuzilishini belgilab, o‘quvchiga chuqr tafakkurga chorlaydi.

Birinchi navbatda, Newspeak – ya’ni yangi til – asarda tilning qanday qilib inson fikrini cheklashi va hokimiyat tomonidan nazorat ostiga olinishi mumkinligini ko‘rsatadi. Orwell Newspeak orqali xalqning so‘z boyligini kamaytirish, shu tariqa mustaqil fikrlash va erkin munozara olib borishni imkonsiz qilishga intiladi. Masalan, “free” (erkin) so‘zining manosi ma’nosи butunlay o‘zgartiriladi va u “slavok” atamasiga aylantirilishi mumkin. Bunday semantik transformatsiya tilning asl mohiyatini va uning ijtimoiy-siyosiy rolini ochib beradi. Tarjima jarayonida bu o‘zgarishlarni aks ettirish juda qiyin: aslida Newspeak tilidagi atamalar ko‘plab madaniy va kontekstual qo‘srimchalarni o‘z ichiga oladi, ularni o‘zbek tiliga to‘liq aks ettirish uchun tarjimon katta mehnat qilgan.

Keyingi muhim semantik element – Doublethink (ikkiyoqlama tafakkur) tushunchasidir.

Bu tushuncha asarda insonning bir vaqtning o‘zida ikki zid fikrga ishonganligini anglatadi. Doublethink nafaqat mantiqiy paradoks, balki hukumatning inson ongini boshqarish vositasi sifatida ham qaraladi. “Doublethink” tushunchasi o‘zbek tilida “ikkiyoqlama tafakkur” deb tarjima qilinsa-da, uning semantik qatlami, ya’ni inson ongidagi qarama-qarshilik va ichki nizolarni aks ettirish darajasi tarjimada yetarlicha ochib berilishi qiyin. Bu atama insonning o‘zini aldashi va jamiyat tomonidan yaratilgan yolg‘on fikrlarga ishonishi orqali totalitar hokimiyatning nazorat mexanizmini ko‘rsatadi.

Big Brother (Katta Og‘a) esa asarning markaziy ramzlaridan biri bo‘lib, hukumatning doimiy nazorati, shaxsiy hayotning buzilishi va shaxsga bo‘lgan ishonchsizlikni ifodalaydi.

Ingliz tilidagi “Big Brother is watching you” iborasi, aslida oddiy bir ogohlantirish emas, balki jamiyatdagi doimiy qo‘rquv va hukumatning hech qachon to‘xtamaydigan nazorati obrazidir. Tarjimada “Katta Og‘a seni kuzatyapti” deb ifodalangan ushbu ibora, aslida anglatuvchi semantik qatlami bilan bir qatorda, o‘quvchini siyosiy va psixologik jihatdan tayyorlash vazifasini ham bajaradi. Ammo, o‘zbek tilidagi iboraning emotsional va konnotativ jihatlarini to‘liq yetkazib berish muammosi mavjud: inglizcha versiya nafaqat oddiy kuzatishni, balki qat’iy nazorat va hukumat tomonidan inson ongiga qilingan hujumni aks ettiradi.

Bundan tashqari, asarda ishlataligan "Room 101" kabi ramzlar ham semantik jihatdan juda murakkab. Room 101 insonning eng chuqr qo‘rquvlarini, shaxsiy azob-uqubatlarni ramziy tarzda ifodalaydi. Bu xonani o‘zbek tiliga tarjima qilishda uning ichki psixologik yuklamasi, shaxsiy dahshat va umidsizlik hissiyotlari yetarlicha aks ettirilishi kerak. Aks holda, o‘quvchi bu tushunchani ingliz tilidagi asl holida his qila olmaydi. Tarjimon bu nuqtada qo‘srimcha izohlar yoki maxsus tavsiflar orqali semantik chuqurlikni ta’minlashga harakat qilgan.

Roman semantik o‘ziga xosligini yanada chuqurroq tahlil qilganda, tilning nafaqat ma’no, balki ideologik va madaniy asorat sifatida ham ko‘rilishi lozim. Orwellning uslubi, frazeologik birliklari va atamalari totalitarizm, nazorat va erkinlik mavzularini o‘quvchiga sezdirish uchun mo‘ljallangan. Ushbu semantik qatlamlar asarda yuzaga keladigan hissiy va intellektual tajribani boyitadi. Tarjima jarayonida bu qatlamlarni saqlash, ya’ni asarning asl ruhiy va madaniy mazmunini o‘zbek o‘quvchisiga yetkazish, katta san’at va ilmiy izlanish talab etadi.

Bundan tashqari, “1984” asarining semantik o‘ziga xosligi uning tilidagi paradokslar, hazil va og‘irlik orasidagi nozik balansda ham aks etadi. Tilning oddiy so‘zları orqali beriladigan murakkab ma’no qatlamlari, o‘quvchini nafaqat voqealar bilan tanishtiradi, balki jamiyatdagiadolatsizlik, erkinlikning yo‘qolishi va insonning ichki dunyosidagi bo‘linishlarni ham ochib beradi. Tarjimon Karim Bahriyev bu murakkablikni tushunarli va lo‘nda qilib o‘zbek tiliga aks ettirishga intilgan, lekin ayrim frazeologizmlarning semantik nozikligi, ayniqsa, totalitar nazorat va tilning o‘ziga xos ideologik yukini aks ettirishda o‘ziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqargan.

Umuman olganda, 1984 asari tilining semantik o‘ziga xosligi uning frazeologik birliklari, yaratilgan yangi atamalari va ideologik kontekst orqali aks etadi. Bu semantik qatlamlar asarga o‘ziga xos madaniy, siyosiy va falsafiy mazmun berib, o‘quvchini nafaqat voqealar, balki ularning orqasidagi chuqur ma’nolar bilan ham tanishtiradi. Tarjima jarayonida esa bu semantik chuqurlikni saqlab qolish – tarjimonning eng muhim va qiyin vazifalaridan biri bo‘lib, u o‘zbek o‘quvchisiga asarning haqiqiy ruhiyatini yetkazib berishga intiladi.

2. Frazeologik birliklarning ekvivalenti yo‘qligi. Frazeologizmlar tarjimasida frazeologik birlikning ekvivalentini topish tarjimon uchun eng nozik va murakkab masalalardan biri hisoblanadi. Orwellning asarida ishlatalgan frazeologik birliklar nafaqat oddiy so‘zlar yig‘indisi, balki o‘ziga xos madaniy, siyosiy va psixologik yukga ega bo‘lgan ifodalar bo‘lib, ularning har biri totalitar rejimning nazorat, qo‘rquv va manipulyatsiya mexanizmlarini aks ettiradi. Shunday ekan, ularning o‘zbek tilidagi ekvivalentlarini topish nafaqat semantik jihatdan, balki madaniy va kontekstual jihatdan ham katta qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Masalan, asardagi oddiy iboralardan biri – “**Second were ticking by**” o‘zbek tilida tarjimon tomonidan “daqiqalar chakkilab tomardi” deb tarjima qilingan. Ushbu ibora ingliz tilida tushunarli hisoblansada, o‘zbek tiliga tarjima qilinganda tushunishda biroz g`alizlik kelib chiqadi. Buning eng asosiy sababi esa ushbu iboraning o‘zbek tilida ekvivalenti mavjud emaslidigkeit. Garchi gramatik jihatdan to`g`ri bo`lsada, ma’no jihatdan tushunarsiz tarjima kelib chiqqan. “Seconds were ticking by” iborasi vaqtning sekin o‘tishini yoki yaqinlashib kelayotgan muhim lahzani tasvirlash uchun ishlataladi. Buni aniq va tabiiy tarjima qilish uchun quyidagi variantlar mos keladi:

- "Soniyalar birin-ketin o‘tib borardi."

- "Vaqt asta-sekin o'tayotgandi."
- "Soniylar sanab bo'lguncha o'tib borardi."

O'zbek tilida "chakkillab tomardi" kabi ibora mavjud emas va bu ma'no jihatdan to'g'ri emas. Shuning uchun ham tarjima tabiiy usulda chiqmagan. Agar "tik-tik" yoki "chakkillash" so'zlarini ishlatmoqchi bo'lsak, ehtimol quyidagicha tarjima qilish mumkin: "Soatning chakkillashiga ergashib soniyalar o'tib borardi." Bu biroz badiiyroq bo'ladi, lekin asl iborani to'g'ri aks ettiradi.

3. Orwell uslubini saqlash qiyinchiligi. Konteksti qo'qotish xavfi. Yana bir misol ko'radigan bo'lsak, "nerved himself iborasining tarjimasiga e'tibor beraylik. Asliyatda: Winston poured out nearly a teacupful, **nerved himself for a shock**, and gulped it down like a dose of medicine. Tarjimada: Uinston undan bir choy qoshiq miqdorda quyib, bir dam ruhini jamladi, xuddi dori ichayotgan bemorday ichimlikni yutib yubordi.

Bu yerda "nerve himself for a shock" iborasi o'zbek tilidagi "bir dam ruhini jamladi iborasiga tenglashtirilgan. Lekin aslida "nerve yourself" birligi biroz boshqacha ma'noni anglatadi, ya'ni biror narsaga jasorat qilmoq degan ma'noni beradi. Konteksdagi gapga qaraydigan bo'lsak, nerved himself for a shock iborasini o'zini kutilmagan holatga tayyorlash deb tarjima qilish mumkin, lekin bu yerda muallif berayotgan badiiylik va tasirchanlik bir qadar yo'qolishi mumkin. Shuning uchun ham tarjimon Karim Bahriyev "ruhini jamladi" iborasini qo'llagan. Garchan ushbu ibora nerved himself birligiga to`liq ekvivalent bo`lmasada, qisman ekvivalent bo`lishi mumkin. Tarjimon quyоридаги frazeologik birlikni tarjima qilishda bir oz qiyinchiliklarga duch kelganligi ko`rinib turibdi, ammo tarjimada muvaffaqiyatga erisha olgan.

Kitobxonga ushbu gapdagি emotсioanl holatni konteksti buzmagan holatda yetkazib bera olgan.

REFERENCES

1. George Oruell "1984" Dorlion Editor December 2022.
2. Karim Bahriyev "1984" – Toshkent Nihol 2020
3. Analytical Journal of Education and Development. Shukrullo Mamatov, Rustam Egamberdiyev "Jorj Oruellning "1984" asaridagi propaganda tavsifi"
4. "Ozbek tilining izohli frazeologik lug'ati" – Shaykat Rahmatullayev – Toshent 1978
5. Oxford English Dictionay - 2011